



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

NOTO'LIQ OILADAGI ONA VA BOLA O'RTASIDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUNOSABATLARNI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o'g'li
Toshkent gumanitar fanlar universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada noto'liq oilalardagi ona-farzand munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini empirik tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Bundan tashqari oila tizimining bola shaxsiyati shakllanishiga ta'siri haqidagi konsepsiyalar tahlil qilingan bo'lib, ushbu nazariy yondashuvlar majmui noto'liq oila sharoitidagi ona-bola munosabatlarini tizimli o'rganish uchun integral metodologik asos vazifasini bajaradi. Tadqiqot natijalari oila psixologiyasining nazariy bazasini boyitishga, shuningdek noto'liq oilalar bilan psixologik-maslahat ishlarini tashkil etishda amaliy ahamiyatga egadir.

Kalit so'zlar: bolani qabul qilish-rad qilish, kooperatsiya, simbioz, nazorat, bolaning omadsizliklariga munosabat, ijobiy qiziqish, direktivlik, dushmanlik, avtonomlik, beqarorlik, raqobat, hamkorlik, kompromiss, jismoniy tajovuz, bilvosita tajovuz, tajanglik, negativizm, xafagarchilik, shubhalanuvchanlik, verbal tajovuz, aybdorlik.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ СОЦИАЛЬНО- ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ МАТЕРЬЮ И РЕБЁНКОМ В НЕПОЛНОЙ СЕМЬЕ

Исмоилжонов Равшан Бахтиёр угли
Ташкентский университет гуманитарных наук, преподаватель

Аннотация

В данной статье изложены теоретико-методологические основы эмпирического исследования социально-психологических особенностей отношений матери и ребенка в неполных семьях. Кроме того, были проанализированы концепции влияния системы семьи на формирование личности ребенка, и этот комплекс теоретических подходов служит интегральной методологической основой для системного изучения отношений матери и ребенка в условиях неполной семьи. Результаты исследования имеют практическое значение для обогащения теоретической базы психологии семьи, а также организации психолого-консультационной работы с неполными семьями.

Ключевые слова: прием-отказ ребенка, кооперация, симбиоз, контроль, отношение к несчастным случаям ребенка, позитивный интерес, директивность, враждебность, автономность, нестабильность, конкуренция, сотрудничество, компромисс, физическая агрессия, непрямая агрессия, агрессия, негативизм, обида, подозрительность, вербальная агрессия, вина.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR STUDYING SOCIO- PSYCHOLOGICAL RELATIONS BETWEEN MOTHER AND CHILD IN A SINGLE-PARENT FAMILY

Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o'g'li
Tashkent University of Humanities, Lecturer

Abstract

This article outlines the theoretical and methodological foundations of an empirical study of the socio-psychological characteristics of the mother-child relationship in single-parent families. In addition, the concepts of the influence of the family system on the formation of the child's personality were analyzed, and this set of theoretical approaches serves as an integral methodological basis for a systematic study of the mother-child relationship in a single-parent family. The results of the study have practical significance for enriching the theoretical base of family psychology, as well as organizing psychological and consulting work with single-parent families.

Keywords: reception-refusal of a child, cooperation, symbiosis, control, attitude to accidents of a child, positive interest, directive, hostility, autonomy, instability, competition, cooperation, compromise, physical aggression, indirect aggression, aggression, negativism, resentment, suspicion, verbal aggression, guilt.

Zamonaviy psixologiya fani oilani inson shaxsining birlamchi va eng ta'sirchan ijtimoiylashuv instituti sifatida e'tirof etadi. Oila tizimida shakllanadigan emotsional, kognitiv va aksiologik munosabatlar bola shaxsiyatining keyingi rivojlanishi uchun fundamental asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu kontekstda noto'liq oila bir ota-onaning, asosan onaning, yakka holda farzand tarbiyalashi bilan tavsiflanuvchi oilaviy struktura — psixologiya fanida alohida tadqiqot obyektiga aylanmoqda, chunki unda klassik nuklear oila uchun xos bo'lgan rolli muvozanat va emotsional resurslarning taqsimlanishi tubdan o'zgaradi.

Demografik va ijtimoiy jarayonlardagi global o'zgarishlar, ajralishlar dinamikasining o'sishi, mehnat migratsiyasi va oilaviy qadriyatlar tizimidagi transformatsiyalar noto'liq oilalar sonining sezilarli ortishiga sabab bo'lmoqda. Bu jarayon nafaqat sotsiologik, balki chuqur psixologik muammoga aylanib, bola shaxsining emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va shaxslararo munosabatlar modellari shakllanishiga kompleks ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, noto'liq oiladagi ona-farzand munosabatlarining psixologik mexanizmlarini chuqur ilmiy o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur muammoning ko'p qirrali xususiyati uni o'rganishda kompleks nazariy-metodologik yondashuvni taqozo etadi. Tadqiqotimizning konseptual asosi bir nechta o'zaro to'ldiruvchi nazariy paradigmalar majmuasidan iborat bo'lib, ularning har biri ona-bola o'zaro ta'sirining o'ziga xos jihatlari ochib berishga qaratilgan.

Birinchi nazariy yo'nalish — noto'liq oilani o'ziga xos ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida tushunishga oid yondashuvlardir. T.A. Gurko [15], A.I. Zaxarov [18], V.M. Seluyko [24], I.F. Dementyeva [16], O.M. Zdravomislova [17] va O.M. Arutyunyaning [14] ilmiy izlanishlarida noto'liq oila tarkibiy deformatsiyaga uchragan oilaviy tizim sifatida talqin qilinadi, unda ota-onalar rollarining qayta taqsimlanishi, emotsional resurslarning cheklanishi va tarbiyaviy strategiyalarning o'ziga xos transformatsiyasi kuzatiladi. Ushbu mualliflar noto'liq oilada bola tarbiyasining xususiyatlari, yakka tarbiyalovchi onaning psixologik holati va oilaning bola shaxsiga ta'sirining deformatsiyalangan mexanizmlarini chuqur tadqiq etganlar.

Ikkinchi nazariy yo'nalish — ota-onalikni psixologik va ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin qiluvchi konsepsiyadir. I.S. Kon va R.V. Ovcharovning ishlarida ota-onalik nafaqat biologik, balki ko'p qatlamli ijtimoiy fenomen sifatida ko'rib chiqiladi, unda shaxsiy, oilaviy va madaniy omillar uyg'unlashadi. R.V. Ovcharovning ota-onalikni yuksak darajada rivojlantirish konsepsiyasi ushbu fenomenning kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarini integral tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Bu yondashuv yakka ona tomonidan amalga oshiriladigan ota-onalik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [19,22].

Uchinchi nazariy yo'nalish — onalik fenomeni va ayol ongining rivojlanishiga oid konsepsiyalardir. G.G. Filippova, T.N. Schastnaya va M.Yu. Chibisovning ishlarida onalik shaxsning maxsus psixologik holati, alohida motivatsion-qiyamatli soha va ayol identifikatsiyasining markaziy komponenti sifatida o'rganiladi. Ushbu mualliflar onalik instinktining shakllanishi, onalik vakolatlarining rivojlanishi va onaning emotsional holati farzand bilan munosabatlar sifatiga ta'sirini tahlil qilganlar [25].

To'rtinchi nazariy yo'nalish — onalikning madaniy-tarixiy determinatsiyasiga oid yondashuvlardir. M. Mid, V.A. Ramix, I.S. Kon va M.S. Rodionovning tadqiqotlari onalikni umumbashariy biologik hodisa emas, balki har bir madaniy-tarixiy davrning o'ziga xos ijtimoiy konstrukt sifatida ko'rsatadi. Antropologik va madaniy-psixologik yondashuvlar doirasida onalik amaliyotlari, qadriyatlari va kutilmalari muayyan jamiyatning madaniy normalari, gender stereotiplari va tarixiy sharoitlari bilan chambarchas bog'liq ekanligi isbotlanadi. Bu yondashuv O'zbekiston sharoitidagi onalik fenomenini milliy-madaniy kontekst doirasida tushunish uchun ayniqsa muhim ahamiyatga ega [19, 20, 23].

Beshinchi nazariy yo'nalish — shaxsning rivojlanishiga oid klassik konsepsiyalardir. E. Eriksonning psixosjtimoiy rivojlanish nazariyasi shaxsning hayot davri davomida ketma-ket bosqichlarni bosib o'tishini tasvirlab, har bir bosqichda hal qilinishi kerak bo'lgan o'ziga xos ziddiyatlarni ko'rsatadi. V.S. Muxinaning shaxs genezisi nazariyasi shaxsning identifikatsiya va izolatsiya mexanizmlari orqali shakllanishini ochib beradi. B.G. Ananyevning kompleks insonshunoslik konsepsiyasi shaxsni biologik, psixologik va ijtimoiy parametrlarning birligi sifatida talqin qiladi. Mazkur nazariyalar bola shaxsining noto'liq oila sharoitidagi rivojlanish xususiyatlarini hayot davri va tizimli nuqtai nazardan tahlil qilish uchun nazariy asos yaratadi [13, 28].

Oltinchi nazariy yo'nalish — oilaning bola shaxsi shakllanishiga ta'siriga oid yondashuvlardir. I.S. Kon, V.S. Muxina, E.G. Eydemiller va G.G. Xomentauskasning ilmiy ishlarida oila tizimi bolaning

ijtimoiy-psixologik rivojlanishini belgilovchi muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. E.G. Eydemillerning oilaviy psixoterapiya konsepsiyasi oilani interaktiv tizim sifatida tahlil qilib, undagi disfunktsional munosabatlarning bola shaxsiyatidagi nevrotik va xarakterologik o'zgarishlarga ta'sirini ochib beradi. G.G. Xomentauskasning ishlari oiladagi o'zaro munosabatlarning bola tomonidan idrok etilishi va interpretatsiya qilinishi nuqtai nazaridan o'rganishga qaratilgan [19, 21, 26, 27].

Yuqorida sanab o'tilgan nazariy yondashuvlar majmui o'zaro to'ldiruvchi xarakterga ega bo'lib, noto'liq oiladagi ona-farzand munosabatlarini ko'p qirrali — strukturaviy, funktsional, dinamik va madaniy-kontekstual nuqtai nazardan tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqotda qo'llanilgan integrativ metodologik yondashuv klassik psixoanalitik, gumanistik, kognitiv-xulq-atvor va tizimli-oilaviy paradigmalarning sintez qilingan platformasi sifatida shakllantiriladi. Bu esa empirik tadqiqot natijalarini ilmiy asosli interpretatsiya qilish va olingan ma'lumotlarni nazariy umumlashtirish uchun yetarli darajada keng kategorial apparatni ta'minlaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi — noto'liq oiladagi ona-farzand munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini empirik tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslarini tizimli yoritish va ushbu tadqiqotda qo'llanilgan psixodiagnostik metodikalar majmuasini tavsiflash hamda asoslashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning nazariy va metodologik asoslarini T.A. Gurko [15], A.I. Zaxarov [18], V.M. Seluyko [24], I.F. Dementyeva [16], O.M. Zdravomislova [17], O.M. Arutyunyaning [14] noto'liq oila psixologiyasini o'rganishga qaratilgan nazariy yondashuvlari; ota-onalikni psixologik va ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin qiluvchi I.S. Kon [19], R.V. Ovcharova konsepsiyalari; R.V. Ovcharovanning ota-onalikni yuksak darajada rivojlantirish konsepsiyasi [22]; G.G. Filippova, T.N. Schastnaya, M.Yu. Chibisovanning onalik va ayol ongini rivojlantirish konsepsiyasi [25]; M. Mid [20], V.A. Ramix [23], I.S. Kon [19], M.S. Rodionovanning onalikning madaniy-tarixiy shart-sharoitlarga bog'liqligi konsepsiyasi; E. Erikson [28], V.S. Muxina [21], B.G. Ananyevning shaxs rivojlanishi nazariyasi [13]; I.S. Kon [19], E.G. Eydemiller [27], G.G. Xomentauskasning oilaning bola shaxsi rivojlanishi va shakllanishiga ta'siri to'g'risidagi yondashuvlari tashkil qiladi [26].

Asosiy qism. Shu bilan birga, dissertatsiya ishining metodologik asoslari psixologiyaning umumiy ilmiy tamoyillari hisoblanmish determinizm va psixikaning faoliyatda rivojlanishi bo'lib, bu noto'liq oila fenomenini biologik va ijtimoiy jihatdan umumiy hamda o'zaro ta'sirga ega bo'lgan ajralmas hodisa sifatida ko'rib chiqishga imkon berdi. Tadqiqotning asosiy muammosini o'rganish S.L. Rubinshteyn, B.M. Teplov, A.N. Leontyev, B.G. Ananyev, N.A. Bernshteyn, A.R. Luriya va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-psixologik tamoyillarga asoslanadi [13]. Noto'liq oiladagi ona va farzand munosabatlari hodisasini tahlil qilishda insonning xulq-atvorini to'laqonli tushunish uchun uni muhit, jamiyat va shaxsiy xususiyatlar bilan birgalikda tizimli tarzda ko'rib chiqish zarurati asoslandi. Rivojlanish yondashuviga ko'ra, inson psixikasi va shaxsiyati uzluksiz, bosqichma-bosqich rivojlanadi. Bu rivojlanish ijtimoiy-tarixiy tajriba, madaniyat, ta'lim-tarbiya va biologik o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq holat sifatida izohlandi.

Qayd etish joizki, bu nazariya, konsepsiya va yondashuvlarning tadqiqot ishida keltirilishi uning ilmiy asoslanganligi, ishonchliligi, shuningdek, oldingi metodologik manbalar tahlil qilinganligini ko'rsatadi.

Noto'liq oilalarda ona va farzandlar munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish maqsadida tadqiqot davomida bir qancha ishonchli va validligi yuqori bo'lgan metodikalar tanlab olinib, sinaluvchilar guruhida o'tkazildi. Mazkur psixologik metodikalarning tavsifini batafsil keltirish maqsadga muvofiq bo'lib, tajriba-sinov ishlarining mohiyati bevosita shunga bog'liqdir.

Ma'lumki, tadqiqot ishining asosiy kategoriyasi ona va farzand munosabatlarini bo'lib, mazkur fenomenning noto'liq oilada tarbiyalanayotgan o'smir farzandlarga onalarning munosabatini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois to'liq va noto'liq oilalarda farzand tarbiyalayotgan onalarning farzand bilan munosabatlari darajasini diagnostika qilish maqsadida A.Y. Varga, V.V. Stolinning «Ota-ona munosabati so'rovnomasi» metodikasi tanlab olindi [1,2,3].

Ushbu test-so'rovnoma ota-onalarning o'z farzandlariga bo'lgan munosabatlarini aniqlash uchun qo'llaniladigan psixodiagnostik vosita bo'lib, 61 ta savoldan iborat. Shuningdek, ushbu so'rovnoma ota-onalarning o'z farzandlariga bo'lgan munosabatini kattalarning bolalarga nisbatan turli-tuman hissiyot va xulq-atvorlari tizimi sifatida o'rganishga imkon beradi. Sinaluvchilar har bir bandeda ifodalangan holat bilan tanishib, ularning o'ziga mos kelishi yoki kelmasligini javob varag'iga qayd etishlari talab etiladi. Buning uchun «Ha» va «Yo'q» javob variantlaridan foydalanib, savollarga javob berishlari zarur.

A.Y. Varga, V.V. Stolinning «Ota-ona munosabati so'rovnomasi» metodikasi o'z ichiga ota-

onalar munosabatini ifodalovchi quyidagi 5 ta shkalani qamrab oladi:

1. Bolani qabul qilish-rad qilish — bu shkala bolaga nisbatan umumiy emotsional ijobiy qabul qilish yoki emotsional salbiy rad qilish munosabatini ifodalaydi. Ushbu shkala orqali aniqlanadigan yuqori darajadagi qabul qilish holati, odatda, bolada xavfsizlik hissining shakllanishi, o'ziga bo'lgan ishonch va sog'lom psixologik rivojlanishni ta'minlash, aksincha, rad etish holati bola psixikasida xavotir, o'zini past baholash va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar darajasini aniqlab beradi.

2. Kooperatsiya — bu shkala kattalarning bola bilan hamkorlik qilishga intilishini, uning ishlariga qiziqishi va ularda ishtirok etishini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich kattalarning bola bilan ijtimoiy-emotsional aloqalarni qanday qurayotganini, bolaga nisbatan do'stona, qo'llab-quvvatlovchi yoki aksincha, masofali va befarq munosabatda ekanini aniqlash imkonini beradi.

3. Simbioz — bu shkala savollari bola bilan birlashishga intilish yoki uni saqlab qolishga harakat qilishni aniqlashga yo'naltirilgan. Bu bola bilan kattalarning o'ziga xos aloqasi bo'lib, ushbu aloqa bolaning mustaqillik darajasiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini, shuningdek, bolaning ota-ona yoki parvarishlovchi shaxs bilan bo'lgan hissiy bog'liqlik darajasini baholashga yordam beradi.

4. Kontrol nazorat — bu shkala kattalar bola xulq-atvorini qanday nazorat qilishlari, bola bilan bo'layotgan munosabatlari demokratik yoki avtoritar uslubda qurilishini xarakterlaydi. Ushbu shkala orqali kattalarning bola ustidan qanday darajada va qanday shaklda nazorat o'rnatayotganini, ya'ni bu nazorat mehr-muhabbat va tushunishga asoslanganmi yoki qat'iy buyruqbozlik va jazoga tayanadimi kabi holatlarni aniqlashga xizmat qiladi.

5. Bolaning omadsizliklariga munosabat — bu so'nggi shkala kattalarning bolaning qobiliyatlari, ustunliklari va kamchiliklariga, muvaffaqiyat va omadsizliklariga qanday munosabatda ekanligini aniqlashga yo'naltirilgan. Ushbu shkala orqali ota-onalar yoki noto'liq oila vakillari tomonidan tarbiyalovchi shaxslarning bolani qanday qo'llab-quvvatlashi, uning kamchiliklariga sabr bilan yondashishi yoki aksincha, tanqidiy, rad etuvchi yoki jazolovchi tarzda munosabat bildirish holatlari aniqlanadi.

Noto'liq oilalarda ona va farzandlar munosabatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillardan biri sifatida farzandlarning ota-ona xulq-atvorining muayyan shakllarini qanday idrok etishi belgilab olindi. Shu nuqtai nazardan, mazkur ikki hodisa o'rtasidagi aloqadorliklarni o'rganish, respondentlarda ota-onalar tomonidan namoyon etiladigan xulq-atvorning farzandlar bilan munosabatlarda qanday idrok etilishini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot ishimizda ushbu vazifani amalga oshirish maqsadida E.S. Shefer tomonidan ishlab chiqilgan «Ota-ona xulq-atvorining bola tomonidan tavsiflanishi» so'rovnomasi tanlab olindi (2-ilova). Mazkur metodika o'smir farzandlarda ota-onasining unga nisbatan munosabatida ijobiy qiziqish, qattiqqo'llik, dushmanlik, avtonomlik va beqarorlik darajasi haqida shakllangan tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. Metodika 50 ta savoldan tashkil topgan bo'lib, ularning har birida ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarda kuzatiladigan turli holatlar keltirilgan. Respondentlardan har bir savolga «Ha», «Qisman» yoki «Yo'q» javob variantlaridan faqat bittasini tanlash talab etiladi [4,5,6].

E.S. Sheferning «Ota-ona xulq-atvorining bola tomonidan tavsiflanishi» so'rovnomasi ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarda kuzatiladigan turli holatlarning o'g'il va qiz bolalar tomonidan qanday idrok etilishini ifodalovchi quyidagi 5 ta shkalani o'z ichiga oladi:

Onaning o'g'li tomonidan baholanishi

1. **Ijobiy qiziqish shkalasi** — bunda ona o'g'liga nisbatan tanqidiy munosabatini me'yor doirasida namoyon etadi. O'g'il ko'pincha onasining fikrlarini qabul qiladi. U onada hukmronlik, shubhalanuvchanlik yoki liderlikka haddan tashqari intilish belgilarini sezmaydi. Ochiq emotsional muloqot esa onaning ijobiy qiziqishining ifodasi sifatida talqin etiladi.

2. **Direktivlik shkalasi** — bunda ona o'g'lida aybdorlik hissini uyg'otishga, o'z fidoyiligini eslatib turishga moyil bo'ladi. U doimo o'g'liga barcha mas'uliyatni zimmasiga olishga tayyorligini bildiradi. Ona o'z ijtimoiy mavqeini o'g'lining namunali bola bo'lishi bilan bog'laydi hamda uning xatoga yo'l qo'ymasligi uchun har qanday chorani ko'rishga intiladi.

3. **Dushmanlik shkalasi** — bunda ona o'g'liga nisbatan agressiv va qat'iy munosabatda bo'ladi. U ko'proq o'z manfaatlarini ustun qo'yadi hamda o'zini sevishtirish va shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ona o'g'lini go'yoki raqib sifatida qabul qiladi. Hissiy sovuqlik, vazminlik va qoidalarga amal qilish niqobi ostida namoyon bo'ladi. Shuningdek, onaning shubhalanuvchan va tanqidiy yondashuvi aniqlanadi.

4. **Avtonomlik shkalasi** — bunda ona o'g'lini mustaqil shaxs sifatida tan olmaydi, balki uni to'liq o'z istaklariga bo'ysundirishga harakat qiladi. U o'zining mutlaq hukmronligidan faxrlanadi.

Onaning o'g'il hayoti va muammolariga nisbatan befarqligi yaqqol namoyon bo'ladi. Shuningdek, u o'g'lida mustaqil fikr va qarashlar mavjudligiga e'tibor bermaydi.

5. **Beqarorlik shkalasi** — bunda ona o'g'liga nisbatan tarbiyada beqaror va o'zgaruvchan yondashuvni qo'llaydi. U kuchli nazorat va hukmronlikdan altruistik va ehtiyotkor munosabatgacha, shuningdek, ishonchsiz va shubhali munosabatlarga tez o'tishga moyil bo'ladi.

Onaning qizi tomonidan baholanishi

1. **Ijobiy qiziqish shkalasi** — bunda ona qiziga kichik boladek, doimiy e'tibor, yordam va g'amxo'rlikka muhtoj inson sifatida munosabatda bo'ladi. Ona bir tomondan qizi bilan maslahatlashishga moyil bo'lsa, ikkinchi tomondan uning mustaqilligini cheklashga harakat qiladi. Shuningdek, ona qizining har bir istagini bajarishga tayyorligini namoyon etadi.

2. **Direktivlik shkalasi** — bunda ona qizini qattiq nazorat ostida saqlaydi va unga nisbatan hukmronlik kuchini osonlik bilan qo'llaydi. Ona qizining o'z fikrini bildirishga intilishini salbiy qabul qiladi. U doimo o'zini haq deb hisoblaydi va qizining aqli hali yetarli emasligini ta'kidlaydi.

3. **Dushmanlik shkalasi** — bunda ona qiziga nisbatan shubhalanuvchan munosabatda bo'ladi va undan masofa saqlashga intiladi. Onaning o'zini munosabatlardan chetga tortishi hamda shubhalanuvchanligi qiziga nisbatan ustunlikni oshkora namoyon etishiga sabab bo'ladi.

4. **Avtonomlik shkalasi** — bunda onaning holati va harakatlari qizining harakatlari yoki talablariga bog'liq bo'lmaydi. Ona qiziga nisbatan g'amxo'rlik va himoyaning har qanday shaklini inkor etadi. U qizi tomonidan talabchan bo'lmagan va kechiruvchan inson sifatida idrok qilinadi. Ona qizini hech qanday faoliyatga rag'batlantirmaydi hamda uning holatlariga nisbatan kamdan-kam tanqidiy munosabat bildiradi.

5. **Beqarorlik shkalasi** — bunda ona qiziga nisbatan tarbiyaviy uslubni keskin va tez-tez o'zgartiradi, ya'ni qattiqqo'l tarbiyadan liberal yondashuvga, emotsional yaqinlikdan esa inkor etishga oson o'tadi.

Qayd etish joizki, noto'liq oilalarda ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarda onalarning xulq-atvori farzand nigohi orqali qanday idrok etilishi, ya'ni onaning hamkorlikka yoki raqobatga moyilligi, murosaga tayyorligi, nizolardan qochishi yoki ularni keskinlashtirishga intilishi kabi sifatlarni aniqlash tadqiqot vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu komponentlar o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganish, respondentlarda nizoli vaziyatlarda ona xulq-atvorining farzand bilan bo'ladigan munosabatlarga ta'sirini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur vazifani amalga oshirish maqsadida K.N. Tomasning «Shaxsning konfliktli xulq-atvoriga moyilligini diagnostika qilish» metodikasi tanlab olindi [7,8,9].

XX asrning 70-yillarida amerikalik psixolog K.N. Tomas tomonidan ishlab chiqilib, N.V. Grishina tomonidan modifikatsiya qilingan. Metodika yordamida shaxsning hamkorlikka yoki raqobatga moyilligi, murosaga (kompromiss, yon berish, yo'l berish)ga tayyorligi, nizolardan qochishi yoki ularni keskinlashtirishga intilishi kabi sifatlarning namoyon bo'lish darajasini aniqlash mumkin. Bu esa tadqiqot ishimizda tanlangan metodikaning ishonchli va o'rinni qo'llanilganligini anglatadi.

«Shaxsning konfliktli xulq-atvoriga moyilligini diagnostika qilish» metodikasi farzandlarda ona bilan bo'ladigan munosabatlarda qanday xulq-atvorni namoyon etishga moyillik mavjudligini aniqlash imkonini beradi hamda 30 ta mulohazaga nisbatan bildiriladigan munosabatlarni tahlil qilishga qaratilgan. Respondentlarning hayoti va faoliyati davomida duch kelishi mumkin bo'lgan nizoli holatlarga aloqador ikki turdagi «a» va «b» javob variantlaridan biri tanlanib, javob varag'iga qayd etiladi. So'rovnomada keltirilgan fikrlar 5 ta shkalani o'z ichiga qamrab oladi:

1. **Raqobat, o'zaro kurashish shkalasi** — bu odatda bir tomonning ikkinchisi ustidan ustun kelishi hisobiga boshqasining batamom yengilishini nazarda tutib, individning o'z manfaatlarini uchun faol ravishda kurashayotganligini, qo'yilgan maqsadga erishishda barcha vositalardan foydalanayotganligini anglatadi. Ya'ni, bunda o'z hukmdan foydalanish, tazyiq o'tkazish, raqibni ma'naviy jihatdan ezish hamda boshqa ishtirokchilarning o'ziga bog'liqligidan foydalanish holatlari kuzatiladi. Bunda individ tomonidan vaziyat juda muhim va ahamiyatli deb baholanadi, raqiblar bilan bo'lgan munosabat qat'iy tus oladi hamda qarshilikka keskin javob qaytariladi. Ya'ni, bunda «Men yutishim uchun sen mutlaqo yengilishing shart» degan tamoyil ustuvor bo'ladi. Bunday usul psixologik nuqtai nazardan har doim ham samarali bo'lmasa-da, ayrim holatlarda masalaning aynan shu tarzda hal etilishi boshqa shaxslarning irodasi yoki faolligining kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin.
2. **Hamkorlik shkalasi** — nizoni hal qilishning shunday usuliki, bunda ikkala tomonning manfaatlarini

nizoni keltirib chiqargan muammodan ustun qo'yiladi. Bunda individning qaror qabul qilishda faol ishtirok etishi va barcha ishtirokchilarning manfaatlarini, shu jumladan, o'z manfaatlarini ham qondirishga intilishi nazarda tutiladi. Ishtirokchilarning ochiq fikr almashishi, umumiy yechim izlashdagi manfaatdorligi ushbu shaklning asosiy belgilaridir. Agar muammoning hal qilinishi barcha tomonlar uchun manfaatli bo'lsa, unda muzokaralar orqali o'zaro foydali qaror qabul qilish muhim rol o'ynaydi.

3. Kompromiss, kelishuv shkalasi — ochiq muloqot va vaziyatni, nizolashuvchi tomonlarning xulq-atvori hamda fikrlarini muhokama qilish yo'li bilan ikkala tomon uchun ham maqbul bo'lgan yechimni izlashni anglatadi. Bu usulning samaradorligi shundaki, nizoga aralashgan shaxs har ikki tomonning aybi va yo'l qo'ygan xatolarini xolis tarzda ko'rsatadi hamda har bir shaxs o'z burch va mas'uliyatlarini anglab yetishi zarurligini ta'kidlaydi. Natijada yuzaga kelgan tanglik yumshaydi va oqilona qaror qabul qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Bunda tomonlarning bir-biriga yon bosishi orqali umumiy qarorga kelinadi va hech kim mutlaq g'olib yoki mag'lub bo'lmaydi. Ushbu xulq-atvor shakli manfaatlar qarama-qarshi bo'lsa-da, tomonlarning imkoniyatlari deyarli teng bo'lgan holatlarda qo'llaniladi.
4. Tortishuvdan qochish shkalasi — bu xulq shaklida individ o'z huquqlarini himoya qilishni istamaydi, nizoning mavjudligini inkor etadi, qaror ishlab chiqishda faol ishtirok etmaydi hamda o'z fikrini bildirishdan bosh tortadi. Ushbu holatning sabablari turlicha bo'lishi mumkin: inson uchun nizoning natijasi muhim emasligi, vaziyatning murakkabligi yoki nizoni o'z foydasiga hal qilish uchun yetarli imkoniyatga ega emasligi shular jumlasidandir. Bunday kishilar kelishmovchilik vaqt o'tishi bilan o'z-o'zidan bartaraf bo'lishini yoki boshqalar tashabbusi bilan hal etilishini kutadilar.
5. Moslashish, yon bosish shkalasi — bu nizolashuvchi tomonlardan birini mavjud holatga ko'ndirish va shu orqali muayyan manfaatlarni saqlab qolishga qaratilgan xulq shaklidir. Bunda «Mayli, men yutqazsam ham, sening ishing bitib ketsin» degan tamoyil ustuvor bo'lib, nizoga aralashgan shaxs vaziyatni yumshatishga intiladi. Individning harakatlari raqib bilan munosabatlarni saqlab qolish va qo'llab-quvvatlashga qaratiladi hamda bu maqsad yo'lida o'z manfaatlaridan qisman voz kechishga ham tayyor bo'ladi.

Tadqiqot ishimizda noto'liq oilada ona va farzand munosabatlarini aniqlashda tajovuz holatining ta'sir darajasini o'rganish tadqiqot vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Shu bois ushbu komponentlar o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlash, respondentlarda ona tomonidan namoyon etilgan tajovuz holatining farzand bilan bo'ladigan hissiy munosabatlarga ta'sirini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur vazifani amalga oshirish maqsadida A. Bass va A. Darki tomonidan ishlab chiqilgan «Tajovuz holatini tashhishtash» metodikasi tanlab olindi.

1957-yilda amerikalik psixologlar Arnold Bass va Albert Darki tomonidan shaxsda mavjud bo'lgan tajovuz va dushmanlik kabi affektiv-emotsional holatlarni psixologik o'lchash va tahlil qilish maqsadida ushbu metodika ishlab chiqilgan. Mazkur metodika shaxsning tajovuzkorlik darajasini turli o'lchovlar orqali differensial baholash, ya'ni tajovuzning qanday shaklda va qanday kuchda namoyon bo'lishini tashxis qilishga qaratilgan ko'p omilli test bo'lib, amaliy hamda ilmiy tadqiqot maqsadlari uchun muhim manba hisoblanadi. Metodika tadqiq qiluvchilarning keng ommasiga mo'ljallangan bo'lib, so'rovnoman yakk holda yoki guruh shaklda qo'llash mumkin [10,11,12].

Metodikadagi savollar soni 75 tani tashkil etadi. Respondentlar berilgan hukmlarni o'z xulq-atvori bilan solishtirib, mos yoki mos emasligini bildirish uchun «Ha», «Ha shekilli», «Yo'q» yoki «Yo'q shekilli» javob variantlaridan birini belgilaydilar. «Tajovuz holatini tashhishtash» metodikasi 8 ta shkaladan iborat:

1. Jismoniy tajovuz shkalasi — boshqa odamga nisbatan jismoniy kuchdan foydalanish darajasini aniqlashga yordam beradi.
2. Bilvosita tajovuz shkalasi — boshqa odamga nisbatan bilvosita yo'naltirilgan yoki hech kimga yo'naltirilmagan tajovuzni aniqlashga xizmat qiladi.
3. Tajanglik shkalasi — arzimans narsalar ta'sirida salbiy hissiyotlarni namoyish etishga tayyorlikni aniqlaydi.
4. Negativizm shkalasi — mavjud qonun-qoidalarga shunchaki qarshi chiqishdan tortib, ular bilan kurashishgacha bo'lgan reaksiyalarni aniqlash imkonini beradi.
5. Xafagarchilik shkalasi — boshqalarning haqiqiy yoki xayoliy harakatlari sababli ularga nisbatan nafrat va hasad hissi darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

6. Shubhalanuvchanlik shkalasi — ehtiyotkorlik va boshqalarga ishonchsizlikdan tortib, boshqalarning yomon niyatda ekanligiga qat'iy ishonish darajasini aniqlaydi.
7. Verbal tajovuz shkalasi — negativ hissiyotlarning turli tovushlar (qiyqirish, chiyillash) yoki so'zlar (qarg'ash, so'kinish) orqali ifodalanish holatlarini aniqlashga xizmat qiladi.
8. Aybdorlik hissi shkalasi — subyektning o'zini yomon inson deb hisoblashi, qilayotgan ishlarini yomonlik deb o'ylashi hamda vijdon azobidan qiynalish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda qo'llanilgan to'rtta psixodiagnostik metodika majmuasi noto'liq oiladagi ona-farzand munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini har tomonlama o'rganish imkonini beradi. Har bir metodika ona-bola o'zaro ta'sirining muayyan jihatini ochib berishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning birgalikdagi qo'llanilishi tadqiqot obyektning ko'p qirrali manzarasini shakllantiradi.

A.Ya. Varga va V.V. Stolinning «Ota-ona munosabati so'rovnomasi» metodikasi yakka tarbiyalovchi onaning farzandga bo'lgan munosabati turini — qabul qilish, kooperatsiya, simbioz, avtoritar gipersotsializatsiya hamda “kichik mag'lubiyatchi” sifatida idrok etish parametrlari bo'yicha aniqlash imkonini beradi. Mazkur natijalar onaning tarbiyaviy pozitsiyasini va oilaviy o'zaro ta'sirning psixologik mexanizmlarini tushunish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

E.S. Sheferning «Ota-ona xulq-atvorining bola tomonidan tavsiflanishi» metodikasi tadqiqot predmetini farzand nuqtai nazaridan yoritadi. Uning besh shkalasi — pozitiv qiziqish, direktivlik, dushmanlik, avtonomiya va nomuvofiqlik — ona va farzand idroki o'rtasidagi muvofiqlik darajasini tashxis qilishga xizmat qiladi.

K. Tomasning konflikt xulq-atvorini diagnostika qilish metodikasi oilaviy nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor strategiyalarini aniqlaydi. Bu ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga ega, chunki ona qo'llaydigan strategiyalarni farzand ichkilashtirib, keyinchalik o'z hayotida reproduktiv tarzda namoyon etadi.

A. Bass va A. Darkining «Tajovuz holatini tashhislash» metodikasi respondentlarning tajovuzkorlik holatini sakkiz parametr bo'yicha baholaydi. Ayniqsa, “ayb hissi” shkalasi yakka tarbiyalovchi onalardagi ichki kechinmalarni miqdoriy o'lchashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Yakuniy ravishda, ushbu metodikalar majmuasidan olinadigan natijalar ikki yo'nalishda samara beradi: nazariy jihatdan — noto'liq oila psixologiyasi sohasidagi ilmiy bilimlarni boyitadi, amaliy jihatdan esa yakka onalar va ularning farzandlari uchun aniq mo'ljallangan psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Варга А. Я., Столин В. В. Тест-опросник родительского отношения // Практикум по психодиагностике. Психодиагностические материалы. — Москва: Изд-во МГУ, 1988. — С. 107–113.
2. Бодалев А. А., Столин В. В., Аванесов В. С. Общая психодиагностика. — Санкт-Петербург: Речь, 2000. — 440 с.
3. Варга А. Я. Структура и типы родительского отношения: дис. ... канд. психол. наук. — Москва, 1986. — 206 с.
4. Schaefer E. S. Children's Reports of Parental Behavior: An Inventory // Child Development. — 1965. — Vol. 36. — No. 2. — P. 413–424.
5. Вассерман Л. И., Горькавая И. А., Ромицина Е. Е. Тест «Подростки о родителях» (ADOR). — Москва; Санкт-Петербург: Фолиум, 1995. — 56 с.
6. Вассерман Л. И., Горькавая И. А., Ромицина Е. Е. Родители глазами подростка: психологическая диагностика в медико-педагогической практике. — Санкт-Петербург: Речь, 2004. — 256 с.
7. Thomas K. W., Kilmann R. H. Thomas-Kilmann Conflict Mode Instrument. — Tuxedo, NY: Xicom, 1974. — 11 p.
8. Гришина Н. В. Психология конфликта. — 2-е изд. — Санкт-Петербург: Питер, 2008. — 544 с.
9. Малкина-Пых И. Г. Психосоматика: справочник практического психолога. — Москва: Эксмо, 2005. — 992 с.
10. Buss A. H., Durkee A. An Inventory for Assessing Different Kinds of Hostility // Journal of Consulting Psychology. — 1957. — Vol. 21. — No. 4. — P. 343–349.
11. Осницкий А. К. Психология самостоятельности: методы исследования и диагностики. — Москва; Нальчик: Эль-Фа, 1996. — 125 с.
12. Хван А. А., Зайцев Ю. А., Кузнецова Ю. А. Стандартизация опросника А. Басса и А. Дарки // Психологическая диагностика. — 2008. — № 1. — С. 35–58.
13. Ананьев Б. Г. Человек как предмет познания. — 3-е изд. — Санкт-Петербург: Питер, 2001. — 288 с.

14. Арутюнян М. Ю. Гендерные отношения в семье. – Москва: МЦГИ, 1997. – С. 26–32.
15. Гурко Т. А. Брак и родительство в России. – Москва: Институт социологии РАН, 2008. – 325 с.
16. Дементьева И. Ф. Негативные факторы воспитания детей в неполной семье // Социологические исследования. – 2001. – № 11. – С. 108–113.
17. Здравомыслова О. М. Семья и общество: гендерное измерение российской трансформации. – Москва: Эдиториал УРСС, 2003. – 152 с.
18. Захаров А. И. Происхождение детских неврозов и психотерапия. – Москва: ЭКСМО-Пресс, 2000. – 448 с.
19. Кон И. С. Ребёнок и общество. – Москва: Академия, 2003. – 336 с.
20. Мид М. Культура и мир детства / пер. с англ. – Москва: Наука, 1988. – 429 с.
21. Мухина В. С. Возрастная психология. Феноменология развития. – 10-е изд. – Москва: Академия, 2006. – 608 с.
22. Овчарова Р. В. Родительство как психологический феномен. – Москва: МПСИ, 2006. – 496 с.
23. Рамих В. А. Материнство как социокультурный феномен: автореф. дис. ... докт. филос. наук. – Ростов-на-Дону, 1997. – 46 с.
24. Целуйко В. М. Психология неблагополучной семьи. – Москва: Владос-Пресс, 2003. – 272 с.
25. Филиппова Г. Г. Психология материнства. – Москва: Изд-во Института Психотерапии, 2002. – 240 с.
26. Хоментausкас Г. Т. Семья глазами ребенка. – Москва: Педагогика, 1989. – 160 с.
27. Эйдемиллер Э. Г., Юстицкис В. В. Психология и психотерапия семьи. – 4-е изд. – Санкт-Петербург: Питер, 2008. – 672 с.
28. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис / пер. с англ. – Москва: Прогресс, 1996. – 344 с.